


“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlashning ikkinchi bosqichi o'tkazildi.

// 06 August 2021 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/vakcinaciya-2>



“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlashning ikkinchi bosqichi o'tkazildi. Tashkilot xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlashda ZF-UZ-VAC 2001 nomli Xitoy-O'zbek vaksinasidan foydalanildi.



Mamlakatimizda koronavirusga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida olib borilayotgan choratadbirlardan biri fuqarolarni koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbirlari hisoblanadi. Bu jarayonda mutaxassislar emlashning afzalliklari, uning inson salomatligi uchun ahamiyati borasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.





Eslatib o'tamiz, 1 mart kuni ZF-UZ-VAC 2001 nomli koronavirusning yangi tipiga qarshi rekombinant (CHO cell) Xitoy-O'zbek vaktsinasi tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan edi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati